



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 03 | pp. 133-140 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

KORPORATIV MOLIYA STRATEGIYASIDA SNW-TAHLIL O'TKAZISHNING IQTISODIY AHAMIYATI



Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishning ahamiyati va dolzarbligi asoslab berilgan. Shuningdek moliyaviy strategiyada SNW tahlil o'tkazishning iqtisodiy ahamiyati va ilmiy asoslari bayon etilgan. Sohaga doir iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari tadqiq etilgan. Xorijiy va mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlarida SNW tahlil natijalariga doir xulosalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy strategiya, SNW tahlil, moliyaviy operatsiyalar, investitsion strategiya, moliyaviy barqarorlik, biznesni boshqarish, moliyaviy instrumentlar, korporativ boshqaruv.

Аннотация: в данной научной статье обоснована важность и актуальность разработки финансовой стратегии в акционерных обществах. Также описано экономическое значение и научная основа анализа SNW в финансовой стратегии. Изучены научные взгляды экономистов на данную тему. Представлены выводы по результатам SNW анализа в акционерных обществах нашей страны и за рубежом.

Ключевые слова: финансовая стратегия, SNW анализ, финансовые операции, инвестиционная стратегия, финансовая устойчивость, управление бизнесом, финансовые инструменты, корпоративное управление.

Annotation: This scientific article substantiates the importance and relevance of developing a financial strategy in joint stock companies. The economic significance and scientific basis of SNW analysis in financial strategy are also described. The scientific views of economists on this topic have been studied. The conclusions based on the results of SNW analysis in joint-stock companies in our country and abroad are presented.

Key words: financial strategy, SNW analysis, financial operations, investment strategy, financial stability, business management, financial instruments, corporate governance.

Kirish

Xalqaro geosiyosiy, tashqi iqtisodiy muhitning o'zgarib borayotganligi sharoitida kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy strategiyalarning uzoq muddatli

“hayotiyligini” saqlab turish, moliyaviy imkoniyatlarning muvozanatligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat tashqi iqtisodiy muhitdagi noma'lum sharoitlar nafaqat ma'lum bir davlatlarda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar balki ular bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshiruvchi boshqa davlatlardagi kompaniyalar faoliyatiga ham bilvosita ta'sir ko'rsatib kelmoqda. “2024 yilda jahon iqtisodiyoti o'sish sur'ati 2,6 foizgacha sekinlashtirishi mumkin, bu esa XVJ tomonidan belgilangan turg'unlik chegarasiga yaqin hisoblanadi. Tahlilchilar 2024 yilda geosiyosiy voqealarni beqarorlashtirish riskni asosiy tahdid deb atamoqda. Deutsche Bank tahlilchilari 2024-yilda global iqtisodiy o'sishni 2,4 foizni tashkil etishini prognoz qilib, global yalpi ichki mahsulotning o'sishi 2,5 foizdan past bo'lishi odatda global darajadagi retsessiya (XVJ iqtisodchilari tomonidan ta'riflanganidek) hisoblanishini eslatib o'tmoqda” [1].

Bunday sharoitda kompaniyalar tomonidan moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishda zamonaviy yondashuvlar va prinsiplar asosida qarorlar qabul qilish hamda mazkur yo'nalishdagi xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalaridan samarali foydalanish zarur. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan istiqbolli moliyaviy rejalashtirish bo'yicha loyihalar amaliyotga tadbiq etilayotgan bo'lsada biroq ushbu xujatlarda tashqi iqtisodiy muhit bilan bog'liq ekonometrik xulosalar yetarlicha aks etayotgani yo'q. Shuning uchun aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishda turli ssenariylar va xalqaro zamonaviy metodologik yonlashuvlardan keng foydalanishga doir tadqiqotlarni olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga doir adabiyotlar sharxi

Korporativ moliyaviy strategiyada SNW tahlilning asosiy tamoyillariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib olingan natijalar istiqbolli loyihalarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlash asosida ularni minimallashtirishga qaratilgan qarorlar qabul qilishga qaratilgan.

Xalqaro geosiyosiy-iqtisodiy o'zgarishlarning kompaniyalar faoliyatiga ta'sirini baholashda ko'plab korporativ baholash bo'yicha yondashuvlarga zarurat bo'lsada, moliyaviy menejerlar o'tgan yillar davomida erishilgan iqtisodiy tendensiyalarga asoslanib qaror qabul qilishi kerak. Mazkur jarayonda SNW tahlil o'tkazishning boshqa uslublardan afzallik jihatlaridan biri olingan natjalarni o'zaro solishtirish imkonini beradi [2]. Korporativ moliya strategiyasida SNW tahlili, birinchi navbatda qabul qilingan qarorlarning boshqa muqobil yo'nalishlar bilan solishtirish imkonini bersa, ikkinchidan kompaniyaning boshqaruv organlari rahbarlariga istiqbolli moliyaviy barqarorlik holatlari bo'yicha prognoz natjalarni taqdim etish imkoniyatini yaratadi [3]. «SNW - tahlili neytral pozitsiyani aniqlash imkonini beradi. Bunda S-kuchli pozitsiya, N-neytral pozitsiya, W-zaif pozitsiya». SNW tahlili - bu kompaniyaning kuchli, zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish hisoblanadi hamda korporativ moliyaviy strategiyada qo'llaniladi. Bu usul kompaniyalarga o'zlarining bozordagi mavjud mavqeini baholash, potensial o'sish imkoniyatlarini aniqlash va beliglangan maqsadlarga erishish uchun strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi [4]. SNW tahlil qilish texnikasi ichki omillarning keng doirasini qamrab oluvchi chuqur ma'lumotlarni ifodalaydi. Uni amalga oshirish natjalari ichki muhit omillari va kompaniyaga ta'sir qiluvchi tashqi omillar

o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi SWOT tahlil matriksasini keyingi qurish uchun yaxshi ishlab chiqilgan va obyektiv asosdir [5]. SNW tahlili bir necha bosqichda amalga oshiriladi: baholash omillarini shakllantirish; bozordagi o'rtacha pozitsiyani aniqlash ya'ni omillarning har biri uchun; har bir omil bo'yicha kompaniyada baholash jarayonini o'tkazish hamda baholashni aks ettirishga doir aylanma jadvalni ishlab chiqish; xulosalarni shakllantirish [6].

Axborot va instrumental muhitga qo'shilish SNW tahlil usullarini tahliliy talqin qilish vositasi sifatida monitoring qilish, ishlab chiqilgan natijalar tadbirkorlik subyektining javobgarlik (mas'uliyat) markazlari sharoitida ishlab chiqarish xarajatlari holati to'g'risida qaror qabul qiluvchilarni habardorlik darajasini sezilarli darajada oshiradi [7]. Korxonani strategik boshqarish tashkilotning muvaffaqiyatli uzoq muddatli rivojlanishining asosiy omillaridan biridir, chunki aynan shu asosiy biznes-jarayon yordamida kompaniya uni yanada rivojlantirish algoritmlarini tuzadi va raqobatbardosh ustunlikka erishadi [8].

Strategiyaning quyidagi asosiy maqsadlarini aniqlash mumkinligini ta'kidlagan: tadbirkorlik sub'ekti rentabelligining umumiy darajasini oshirish; tadbirkorlik sub'ekti tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish hajmini oshirish; bozor ulushini oshirish; maqsadli auditoriya uchun korxona tomonidan taklif etilayotgan mahsulotlarning jozibadorligini oshirish [9].


Yuqoridagilar asosida ta'kidlash mumkinki, SNW tahlili korporativ moliya strategiyasining boshqa uslublari singari istiqbolli loyihalarni tahlil qilish qolaversa kompaniyaning uzoq muddatlari moliyaviy holatini baholashda muhim o'rinni tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada SNW-tahlilining mohiyati hamda korporativ moliya strategiyasida ushbu tahlilni o'tkazishning ahamiyati o'rganlib, tahlil qilindi. Shu bilan birga, mavzuga oid bir qancha adabiyotlarga tayangan holda mantiqiy fikrlash va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Moliyaviy strategiyada SNW tahlili kompaniyaning moliyaviy holatini baholash va istiqbolli ko'rsatkichlarini prognoz qilishda foydalilanadi. SNW tahlilning asosiy prinsipi kapital qiymatining tuzilishi va aktivlar tarkibini qiyosiy tahlili asosida qarorlar qabul qilish hisoblanadi. SNW tahlilidan foydalaniib, kompaniya aksiyalari qiymati maksimal bo'lganda yoki tushganda kompaniya kapitalining optimal tuzilishini aniqlash mumkin. Olingan natijalar esa, kompaniyaga SNW tahlilining asosiy tamoyillari asosida qarzni oshirish yoki yangi aksiyalarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish imkonini beradi. Faoliyatning asosiy jarayonlari va sohalariga ta'sir qiluvchi savollarga javoblar natijalariga ko'ra, asosiy parametrlarni kuchli, zaif va neytral tomonlarga taqsimlash kerak. Tahlil usulining maqsadi korxonaning ichki muhiti omillarini, ularni yaxshilash va rivojlantirish, zaif tomonlarni bartaraf etish yoki neytrallashtirish, keyinchalik esa (imkoniyat darajasidan kelib chiqib) kuchli tomonlarga aylantirish uchun eng kuchli tomonlarini aniqlashdir (1-rasm). Tahlil jarayonida kompaniya faoliyatiga doir aniq parametrlarni aniqlash muhimdir.



1-rasm. SNW tahlil usulining mohiyati.

Aniqlangan parametrlar korxonaning o'ziga xos rivojlanish maqsadi, maqsadli auditoriya va mijozlar guruhlari, assortiment siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari, reklama usullaridan foydalanish istiqbollari va boshqalar bo'lishi mumkin. Mazkur tadqiqot ishida xalqaro yirik kompaniyalardan biri bo'lgan Coca Cola kompaniyasining 2024-yilga SNW-tahlilini ko'rib chiqamiz. Coca Cola kompaniyasining SNW tahlili kompaniyaning kuchli, zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlariga qaratilishi mumkin:

1-jadval
2024 yil uchun Coca-Cola kompaniyasining SNW tahlil natijalari [10]

Kuchli tomonlari (Strengths)	Zaif tomonlari (Weakness)	Imkoniyatlari
Kuchli brend identifikatori	Kuchli raqobat (Pepsi)	Sog'lik uchun foydali variant ishlab chiqish
Keng tarqalgan logistika tarmog'i	Mahsulotni diversifikasiya qilish	Yangi bozorlarni kengaytirish
Kengaytirilgan Global Reach	Sog'lik bilan bog'liq muammolar	Sotib olish va xamkorlik
Kuchli moliyaviy natijalar	Turli darajadagi davolar	Qimmatli qog'ozlar bozoridagi ustuvorlik
Dominant bozor ulushi	Logistika xizmatlaridagi uzilishlarning ehtimolligi	Constellation brendi bilan hamkorlik
Innovatsiyalar va marketing sarmoyalari	Xalqaro savvdo sanksiyalar ro'yxatiga kiritilgan hamkorlik munosabatlari	Qo'shib olish va birlashish imkoniyatlari
Eng yuqori brend assotsiatsiyasi va mijozlarning sodiqligi	Atrof-muhit muhofazasi	Foydali bo'lgan qo'shimcha salqin ichimliklarni ishlab chiqarish

Coca Cola, shubhasiz yuqori qiymatga ega bo'lgan eng mashhur brendlardan biridir. Kopaniya tomonidan taqdim etilgan yillik hisobotiga ko'ra, Coca-Cola birgina 2021 yilda 57 milliard dollarlik brend qiymati bilan 6 ta eng yaxshi global brend sifatida o'rinn olgan. Ro'yxatdagi boshqa yetakchi kompaniyalar Apple 1-o'rinda, Amazon 2-o'rinda, Microsoft 3-o'rinda, Google 4-o'rinda va Samsung 5-o'rindani egallagan.

Korxonaning sof foydasining oshishi yoki kamayishi uning moliyaviy holati va faoliyatining o'zgarishini bildiradi. Sof daromadning oshishi odatda investorlar va bozor uchun ijobiy signal sifatida qabul qilinadi, chunki bu kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va muvaffaqiyatidan dalolat beradi. Biroq, foydaning juda yuqori darajada o'sishi, ayniqsa, barqaror bo'limgan amaliyotlar yoki moliyaviy hisobotlarni manipulyatsiya qilish orqali erishilsa, muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Tahlil

natijalari asosida, 2011-2022 yillar davr mobaynida Coca Cola kompaniyasining sof foydasi bir maromda ortib va kamayib turganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Lekin 2017-yilga kelib ushbu ko'rsatkich keskin 1,25 mld. dollarga tushib ketgan. Bu esa turli sabablarga ko'ra bo'lishi mumkin, masalan, sotishning pasayishi, tovarlar yoki xizmatlar narxining pasayishi, xarajatlarning oshishi, moliyaviy boshqaruvning yomonligi, muvaffaqiyatsiz investitsiyalar yoki noqulay iqtisodiy sharoitlar. 2023 yilning boshiga kelib esa kompaniya sof foydasining 12 mld. dollarni tashkil etishini ijro organi tomonidan faoliyatni takomillashtirishga doir amalga oshirilgan islohotlarning ijobiy yechimi sanaladi. SNW - tahlil nafaqat kompaniyalarga, balki mintaqaga, hatto sanoatga nisbatan ham amalga oshirilishi mumkin. Agar u hududiy iqtisodiy tizimning tarmoq ma'lumotlari bo'yicha amalga oshirilsa, u holda uning resurslari, iqtisodiy salohiyati, eksport, import hajmi, ishlab chiqarish infratuzilmasi, qishloq xo'jaligi, hududiy boshqaruv tizimi va boshqalar baholanadi.

Ta'kidlash lozimki keyingi yillarda mamlakatimizda xam faoliyat yuritayotgan yirik aksiyadorlik tijorat banklari tomonidan istiqbolli loyihalarni amaliyotga joriy etishda SNW tahlil usullaridan keng foydalaniб kelinmoqda. Quyidagi jadval ma'lumotlarida mamlakatimizdagi yirik tijorat banklarining mazkur strategik usullardan foydalangan holda mavjud imkoniyatlari, hatarlar va zaif jihatlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan (2-jadval). Asaka bank ATB misolida tahlillarimizni davom ettiradigan bo'lsak, bankning missiyasi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va uning xalqaro iqtisodiy hamjamiyatga integratsiyalashuviga ko'maklashish, mijozlarimizga yuqori sifatli bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish. Shuningdek, chakana savdo va biznes mijozlarining moliyaviy hamkor bo'lish, ularning rejali va intilishlarini amalga oshirishga yordam beradi. 2024 yilga kelib, Bank mahsulot turlarini kengaytirish va mijozlar ehtiyojini qondirish darajasini oshirishga qaratilganligi tufayli jismoniy shaxslar va kichik va o'rta biznes sub'ektlari bilan biznes yuritishda muhim ulushga ega bo'lgan aktivlar bo'yicha TOP 3 ta bank qatoriga kiritish asosiy мақсалардан бири ҳисобланади. 2024 yilra kelib эса, Bank to'liq bozorga asoslangan bo'lib, xususiy lashtirish va minoritar ulushga xorijiy investorlarni jalb qilish bo'yicha rejalarini amalga oshirmoqda.

Bank tomonidan kutilayotgan asosiy hatarlar sifatida quyidagilar keltirilgan:

- pandemiya davrida hukumatning cheklash choralari tufayli iqtisodiy o'sish sur'atlari va aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining daromadlari pasayishi;
- arzon xalqaro resurslarni jalb qilish imkoniyati bilan bank sektorida yangi texnologik rivojlangan o'yinchilarning paydo bo'lishi;
- nobank institutlari (uyali aloqa operatorlari, mikrokreditlar, lizing va faktoring tashkilotlari) raqobatining kuchayishi;
- milliy valyuta kursining o'zgaruvchanligi, bankning ochiq valyuta pozitsiyalari bo'yicha zarar ko'rishi va mijozlarning chet el valyutasidagi majburiyatlar bo'yicha to'lov qobiliyatining yomonlashishi;

- yangi IT platformasiga o'tishdagi kechiqishlar; raqobatchi banklarga oqim tufayli yuqori malakali kadrlarni yo'qotish kabilar.

O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklarining SNW tahlil natijalari [11]

Tijorat banklarining nomi	Kuchli tomonlari (Strengths)	Zaif tomonlari (Weakness)	Imkoniyatlari
Biznesni rivojlantirish banki	Bozordagi tajriba, yillar davomida shakllangan katta mijozlar bazasi, mijozlar ishonchli. Savdoni moliyalashtirishda bozor yetakchiligi.	Ko'p miqdordagi muammoli kreditlar. Majburiyatlar va kredit portfelining yuqori koncentrasiysi, bir qator yirik mijozlarga qaramlik.	Xalqaro moliya institutlaridan (xususan, Yel'TB, OTB, Jahon banki va boshqalar) tashqi investitsiyalar va/yoki kredit liniyalarini jalg qilish.
Asaka bank	Avtomobil sanoati korxonalariga xizmat ko'sratish sohasida bozor yetakchiligi. Xalqaro moliya tashkilotlari va yetakchi xorijiy tijorat banklari bilan uzoq muddatli hamkorlik.	Biznes-jarayonlarni avtomatlashtirishning pastligi, IT-yechimlarni joriy etishning uzoq muddatlar, bitta IT-sotuvchiga bog'liqlik. Xodimlarni rag'battalantirishning zamonaevi tizimi va uni qo'llab-quvvatlash uchun avtomatlashtirilgan echimlarning yo'qligi. Faol bo'limgan mijozlarning yuqori foizi.	Bank kapitaliga xorijiy investorlarni kirish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish. Banking transformatsion loyihalarni amalga oshirish uchun tashqi maslahatchilarini jalg qilish, katta bank tajribasiga ega norezidentlar orqali jamoani mustahkamlash.
Turon bank	Bank rivojlanishiga davlat tomonidan e'tibor qaratish: Boshqaruv tarkibiga mustaqil direktorlarni jalg qilish, xususiylashtirish to'g'risida qaror chiqarish. Respublikaning barcha hududlarini qamrab oluvchi filiallar va mini-banklarning keng tarmog'i.	Bir qator tizimli muhim yo'naliшlar (IT, kadrlar, moliyaviy menejment, IFRS) bo'yicha malakali mutaxassislarning etishmasligi. Filial tarmog'ining bir qismining foydasizligi	Yangi IT-yechimlarni joriy etish orqali mijoz va ichki biznes jarayonlarining samaradorligi va sifatini oshirish. Chakana savdo va kichik biznes sohasida tranzaksiya biznesini rivojlantirish orqali komissiya daromadlari hajmini oshirish.
MK bank	Tajribali va malakali jamoa Bank rahbariyati IT-platforma va xodimlarni yanada rivojlantirish zarurligini tushunadi. Aksiyalar orqali aholini bank xizmatlariga qiziqishini oshirish yo'lg'a qo'yilgan.	Mijozlar bilan muloqot qilish uchun onlayn kanallarning yetarli darajada rivojlanmaganligi. Transfer narxlari tizimi va xarajatlarni taqsimlashning yo'qligi sababli biznes yo'naliшlari va savdo nuqtalarining rentabelligini baholay olmaslik.	Mijozlar bilan o'zaro aloqaning onlayn va zamonaevi shakllarini rivojlantirish orqali xarajatlarni kamaytirish. 1 mijozga sotish darajasini oshirish

Xulosa va takliflar

Har qanday kompaniyaning strategik boshqaruvi uchta muhim bosqichdan iborat muntazam takrorlanadigan tsikldir. Birinchi bosqich korxonaning hozirgi holatini aniqlash, ya'ni istiqbol uchun dastlabki ma'lumotlarni olish uchun mo'ljallangan. Ikkinci bosqichda to'g'ridan-to'g'ri korxona strategiyasini ishlab chiqish amalga oshiriladi, bu kompaniya belgilangan davriy oylar ichida erishishi kerak bo'lган zaruriy o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Uchinchi bosqich esa taktik bo'lib, unda kompaniya strategiyaning har bir nuqtasiga erishish uchun aniq harakatlar rejasini tuzadi.

Strategik menejment loyihalarni boshqarish, resurslarni boshqarish, bilim, sifat, barqaror rivojlanish, risklar, biznesning uzlusizligi, axborot, moliyaviy va atrof-muhitni boshqarish, taqqoslash va boshqalar kabi bir qancha sohalarning sintezini nazarda tutadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, har qanday kompaniyaning strategik boshqaruvi jarayonida ichki muhitning strategik tahlili markaziyo'rinni egallaydi. Bugungi kunda menejerlar orasida bunday ichki korporativ tadqiqotlarning eng mashhur usuli bu SNW tahlilidir.

SNW tahlili korxonaning ichki muhitidagi omillarning etarlicha keng doirasi bo'yicha chuqur ma'lumotlarni olish uchun juda foydali va samarali vositadir. Tahlil natijalarini samaradorligini oshirish uchun kompaniya ichki muhitini o'rganishdan tashqari, uni eng muvaffaqiyatli raqobatchi bilan solishtirish tavsiya etiladi. Agar ko'rib chiqilgan usullarni solishtirsak, shuni ta'kidlash kerakki, SNW tahlili, ko'plab boshqaruv nazariyotchilarining fikriga ko'ra, SWOT tahlilining yanada takomillashgan ko'rinishidir. Kompaniya ichki muhitini tahlil qilish kompaniyaning sifatli strategik boshqaruvi uchun

juda muhim degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bundan tashqari, SWOT va SNW tahlillarini ushbu biznes jarayoni uchun eng qulay va samarali vositalar deb hisoblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. [https://www.imf.org/en/News/country-focus-jamg'armasining iqtisodiy rivojlanish bo'yicha prognozlari](https://www.imf.org/en/News/country-focus-jamg'armasining-iqtisodiy-rivojlanish-bo'yicha-prognozlari) Xalqaro valyuta
2. Yuxiang Hu, Taotao Tu, Zekui Lei, Impact of corporate environmental goals on compliance behaviors in European Union food industry: A cross-country analysis//Journal of Cleaner Production, Volume 444, 2024, 141212, ISSN 0959-6526, <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2024.141212>.
<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0959652624006590>)
3. Zhongju Liao, Xiaodie Liu, Yang Sun, Can corporate background characteristics predict environmental innovation? Evidence from a meta-analysis//European Management Journal, Volume 41, Issue 6, 2023, Pages 1047-1055, ISSN 0263-2373, <https://doi.org/10.1016/j.emj.2023.04.005>.
(<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0263237323000476>)
4. Воробьев А.В Анализ подхода к разработке финансовой стратегии предприятия, базирующегося на общей управлеченческой парадигме// «Экономика и бизнес» 2020 г. № 4. стр. 29
5. Бронникова Е.М. SNW-анализа как компонент SWOT-анализа деятельности организации//Бизнес и дизайн ревю. 2020 г. № 2 (18).
6. Коляда Н.Я. Роль SWOT и SNW-анализов в процессе стратегического управления компанией//National Science № 5, 2023 г.
7. Мизиковский И.Е. Проактивный мониторинг потребления производственных ресурсов в потоке создания ценности промышленным предприятием//Социалные науки, 2021, № 2 (62), с. 30-36.
8. Gancarczyk M., Konopa S. (2021) Exploring the Governance of Entrepreneurial Ecosystems for Productive High Growth. Foresight and STI Governance, 15(4), 9-21. DOI: 10.17323/2500-2597.2021.4.9.21
9. Islamov Sh.T. Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llari//“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali 3-sod 2023-yil.
10. <https://bstrategyhub.com/swot-analysis-of-coca-cola-2024-coca-cola-swot-analysis/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi
11. Banklarning rasmiy internet saytlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
12. Ne'matillaevich H. O. Financial risk management at the enterprise: methods and models. – 2016. – №. 2016-03-17.

13. Burkhanov, A. U., and O. N. Hamdamov. "Financial management. Textbook." T.:«Innovative development publishing house», -2020.

14. Elmurodov S. Yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda moliyaviy mexanizmlarning iqtisodiy ahamiyati va o‘rni //MOLIYA VA BANK ISHI. – 2022. – T. 8. – №. 3. – C. 160-165.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

